



XIX ASR IKKINCHI YARMIDA TURKISTONDA MAORIF TASHKIL ETISH MASALALARI

Ismailov T.X.

Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tayanch soʻzlar: Turkiston, maorif masalalari, taʼlim islohotlari, anʼanaviy maktablar, rus siyosati, taʼlim tizimi, Rossiya imperiyasi.

Ключевые слова: Туркестан, проблемы образования, образовательные реформы, традиционные школы, российская политика, система образования, Российская империя.

Key words: Turkestan, educational issues, educational reforms, traditional schools, Russian policy, educational system, Russian Empire.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda maorifni tashkil etish masalalari atroficha tahlil qilinadi. Ushbu davrda taʼlim tizimining shakllanishiga taʼsir etgan muhim ijtimoiy va siyosiy omillar, xususan, Rossiya imperiyasining maʼmuriy islohotlari va ularning mahalliy taʼlimga koʻrsatgan taʼsiri koʻrib chiqiladi. Mahalliy anʼanaviy taʼlim va yangi usuldagi maktablarning tashkil etilishi, jadidchilik harakatining taʼlim sohasidagi yutuqlari va qiyinchiliklari muhokama qilinadi. Maqolada tarixiy faktlar asosida Turkistonda maorifni rivojlantirishning murakkab jarayonlari, mahalliy jamiyatning taʼlimga munosabati va bu jarayonlarning zamonaviy taʼlim tizimiga qoldirgan merosi yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье подробно анализируются вопросы организации образования в Туркестане во второй половине XIX века. В этот период рассматриваются важные социальные и политические факторы, повлиявшие на формирование системы образования, в частности, административные реформы Российской империи и их влияние на местное образование. Обсуждаются организация местного традиционного образования и школ нового метода, достижения и трудности джадидистского движения в сфере образования. На основе исторических фактов в статье описаны сложные процессы развития образования в Туркестане, отношение местного общества к образованию и наследие этих процессов в современной системе образования.

SUMMARY:

In this article, the issues of educational organization in Turkestan in the second half of the 19th century are thoroughly analyzed. In this period, the important social and political factors that influenced the formation of the education system, in particular, the administrative reforms of the Russian Empire and their impact on local education, are considered. The organization of local traditional education and schools of the new method, the achievements and difficulties of the Jadidist movement in the field of education are discussed. On the basis of historical facts, the

article describes the complex processes of education development in Turkestan, the attitude of the local society to education and the legacy of these processes to the modern education system.

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmi Turkiston tarixi uchun muhim o'zgarishlar davri bo'lib, bu davrda jamiyatning turli sohalarida, jumladan, maorif tizimida ham sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi va u yerdagi boshqaruv tizimini o'zgartirishi mahalliy ta'lim tizimining holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. An'anaviy maktablar va madrasa ta'limi bilan chegaralangan mahalliy maorif tizimi zamonaviy ta'lim islohotlari va jadidchilik harakatining yangi g'oyalariga duch keldi. Shuningdek, rus ma'muriyatining o'lkada o'z manfaatlariga mos ta'lim tizimini joriy qilishga intilishi ta'lim sohasida bir qator murakkabliklarni keltirib chiqardi.

Mazkur davrda maorif masalalarini tahlil qilish o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotini to'liq anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada XIX asr oxiridagi Turkiston o'lkasining ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, mahalliy va yangi usuldagi maktablarning rivojlanishi, rus siyosatining ta'lim sohasiga ko'rsatgan ta'siri hamda jadidlar harakatining o'rni yoritiladi. Maqola ta'lim sohasidagi tarixiy jarayonlarni o'rganish orqali bugungi kunda dolzarb bo'lib qolayotgan ta'lim islohotlarining tarixiy ildizlarini ochib berishga qaratilgan.

Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida o'lkada musulmon ta'lim muassasalarini isloh qilish va yangi rus ta'lim tizimini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Birinchi bosqich (1867-1883 yillar)da imperiya ma'muriyati mahalliy va rus tilida so'zlashuvchi aholining bolalari uchun maktablar tashkil etdi. Ikkinchi bosqich (1884 yildan XX asr boshlarigacha)da mahalliy aholining e'tiborini qisman qozongan rus-tuzem maktablari ochildi, ularning ta'lim usullari tub aholi an'anasiga yaqinlashtirildi. O'rta ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari ham tashkil etildi. Uchinchi bosqichda (XX asr boshidan 1917 yilgacha) rus-tuzem va o'rta ta'lim muassasalarining soni oshdi. Shu bilan birga, mustamlakachilik siyosatiga qarshi deb topilgan milliy ziyolilar tomonidan tashkil etilgan "yangi usul" maktablar hukumat tomonidan bosimga uchradi. Shuningdek, ta'limni zamonaviylashtirish bo'yicha milliy va rus ma'rifatparvarlari tomonidan taklif qilingan loyiha va takliflar e'tiborsiz qoldirildi.

O'lka ma'muriyati rus maktablari uchun ikki asosiy vazifani belgilagan: birinchisi, mahalliy aholi diniy qadriyatlarini hurmat qilgan holda ta'limni Rossiya imperiyasining manfaatlariga mos tarzda rivojlantirish, ikkinchisi, mahalliy aholini rus monarxiyasi davlat tuzumi asoslariga moslashtirish edi. XIX asr oxirida imperiya hukumati mintaqa aholisi ijtimoiy-ma'naviy hayotida dinning katta ahamiyatga ega ekanligini anglab, o'z hukmronligini yanada



mustahkamlash uchun yangi strategiyalar izlay boshladi. Bu masalada yuqori darajadagi muhokamalardan soʻng, islomni tartibga solish uchun XIX asrning 60-80-yillarida joriy etilgan uslubni oʻzgartirmaslikka qaror qilindi[1; 173-b]. Sababi, Rossiya imperiyasi taʼlim siyosatining musulmon Sharqida islomga toqatsiz va dushmanona davlat sifatida koʻrinishi imperiyaning manfaatlariga zid[2], yaʼni zararli deb topildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda anʼanaviy taʼlim tizimi turgʻunlikka yuz tutdi, zamonaviylikdan uzoq boʻlgan bu taʼlim shakli imperiya maʼmuriyatining mahalliy taʼlimga nisbatan “mensimaslik” siyosatini shakllantirishiga sabab boʻldi. Natijada imperiya maʼmuriyati mahalliy taʼlimni obroʻsizlantirish uchun rus taʼlim muassasalari tizimini joriy etishga harakat qildi. XIX asrning 60-70-yillarida imperiya hukumati taʼlim sohasida islohotlar oʻtkazayotgan edi. Turli madaniyat va turmush tarzi bilan ajralib turuvchi xalqlar taʼlimi uchun tabiiy, geografik va etnomadaniy xususiyatlarga asoslangan alohida qonun-qoidalar ishlab chiqilgan edi. Biroq, Turkiston uchun bunday maxsus qoidalar ishlab chiqilmadi va oʻlka umumiy qonun-qoidalar asosida boshqarildi. 1869 yil 26 may va 1874 yil 25 maydagi qonunlarga binoan oʻlkada oʻquv muassasalarini boshqarish uchun xalq taʼlimi muassasalari direktor va inspektorlari lavozimlari taʼsis etildi.

Oʻquv muassasalarini yaqindan nazorat qilish maqsadida general-gubernator huzurida bilim yurtlari bosh inspektori lavozimi joriy qilindi, u ikkita yordamchi va maxsus kotib-hisobchi bilan ishladi. Turkiston oʻlkasi oʻquv boshqarmasi hududni viloyat chegaralariga bogʻliq boʻlmagan uchta oʻquv inspeksiya rayoniga ajratdi.

Turkiston oʻlkasidagi har bir bilim yurti bosh inspektor tomonidan ikki yilda bir marta taftish qilinishi kerak edi. Biroq bosh inspektor yillik hisobotlarni general-gubernator nomidan Xalq maorifi vazirligiga taqdim etish, shoshilinch maʼlumotlar va axborotnomalarni tuzish, Xalq maorifi vazirligi buyruqlarining ijrosini taʼminlash, shuningdek, oʻlka rahbari bilan kelishilgan holda yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifalarini bajarishi kerak edi. Bu vazifalar bosh inspektorning asosiy mehnat vaqtini talab qilgan va u oʻzining boshqa masʼuliyatlarini toʻliq bajara olmasligiga olib kelgan. Shu sababli, shtatdagi kadrlar yetishmasligi va mavjud kadrlarning vazifalarni oʻz vaqtida va toʻliq bajarishga qodir boʻlmasligi oʻlkadagi rus taʼlim tizimi faoliyatidagi muhim muammolardan biriga aylangan. Bu masala 1917 yilga qadar hal qilinmagan.

Arxiv hujjatlari va oʻsha davr matbuot materiallarini tahlil qilish natijasida, uyezdlardagi oʻquv ishlari faqatgina oʻquv boshqarmasi organlari tomonidan boshqarilgani maʼlum boʻldi. Qishloq va koʻpincha shaharlardagi bilim yurtlarining xoʻjalik ishlari, jumladan, yangi bilim yurtlarini tashkil etish,

mavjudlarini yaxshilash, yetarli mablag‘, xonalar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta‘minlash kabi masalalar o‘quv boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan. Ba‘zi hollarda, uyezd va viloyatlarda mahalliy mahkamalar va harbiy-byurokratik apparat ta‘lim muassasalari faoliyatini yaxshilash jarayonida to‘sqinlik qilgan. Xususan, bu borada “Ташкентский курьер”[8] gazetasi sahifalarida “Turli ma‘murlar o‘qituvchi shaxsiga ishonch va hurmat ko‘rsatmaydi. Ma‘muriyatning polisiya-byurokratik qarashlari sabab o‘qituvchilar tez-tez boshqa joylarga ko‘chirilgan. Farg‘ona viloyatida bunday holatlar ko‘p o‘chrab turadi”, - kabi ma‘lumotlarni uchratamiz.

O‘lkadagi rus bilim yurtlarining o‘quv ishlari Xalq maorifi vazirligi mansabdorlari tomonidan boshqarilgan, xo‘jalik masalalari esa ta‘sischilar va ta‘minotchilar zimmasiga yuklatilgan edi. Davlat xazinasi, jamiyat va shaxsiy manbalardan moliyalashtiriladigan barcha mahkamalar, shuningdek, shahar va qishloq maktablarining boshqaruvi bo‘yicha asosiy ijro funksiyasi uyezd bilim yurtlari kengashlari tomonidan bajarilgan.

Turkistondagi dastlabki rus maktablari aniq rejalarsiz tashkil etilib, asosan o‘lkadagi rus aholisining ta‘lim ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan edi. General-gubernatorlik tuzilmasi tashkil etilgach, maktablar rus aholisini imtiyozli va qaram tabaqalarga ajratgan holda, belgilangan tamoyillarga muvofiq ravishda tashkil etilgan [5; 103-b].

1873 yilda ishlab chiqilgan “Turkiston o‘lkasi ta‘lim muassasalarini tashkil etish” loyihasida dastlab o‘troq aholi uchun oliy darajadagi uyezd maktablarini va ko‘chmanchi qirg‘izlar uchun quyi savodxonlik maktablarini tashkil etish hamda o‘troq aholi yashaydigan chekka joylarda rus ta‘limini joriy etish rejalashtirilgan edi. Ammo hayotiy tajriba ushbu rejalarning ba‘zilari noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi.

Mahalliy aholiga ta‘lim berishda rus maktablari yetarlicha samarali bo‘lmagan. Turkiston xalqlarining rus maktablariga salbiy munosabati “keng va jiddiy” dasturlarga emas, balki chor mustamlakachilik zulmiga, mahalliy maktablarning qiyin vaziyatga tushib qolishiga, o‘quv boshqarmasi vakillarining mahalliy aholiga hurmatsiz munosabatda bo‘lishiga va O‘rta Osiyo xalqlarining milliy madaniyatini kamsitilishiga bog‘liq edi.

1880-1881 o‘quv yilida rus ta‘lim tizimi quyidagicha shakllangan edi: Sirdaryo viloyatida jami 17 ta, Farg‘ona viloyatida 5 ta shahar va 5 ta diniy, Zarafshon okrugini 3 ta, va Yettisuv viloyatida jami 67 ta boshlang‘ich va o‘rta maktab bo‘lib, umumiy hisobda 3355 nafar o‘quvchi ta‘lim olgan.

Xuddi shu davrda Turkiston o‘lkasi kapitalistik jarayonlarning kuchayishi bilan butun imperiyaga tobora ko‘proq qo‘shilib borar ekan, mahalliy ziyolilar



va ilgʻor tadbirkorlar orasida rus tilini va imperiya qonunlarini bilishga ehtiyoj sezganlar soni oshib bordi.

Shu sharoitda rus-tuzem maktablari tashkil etildi. Bu maktablar mahalliy aholi uchun yevropa uslubidagi birinchi dunyoviy taʼlim olish imkoniyatini yaratdi. Rus tili oʻquv dasturida birinchi yildan boshlab oʻrgatila boshlanib, taʼlim toʻrt yil davom etgan. Oʻquv yili odatda 130 kundan oshmagan. Qishloq joylarda oʻquvchilar dala ishlari bilan band boʻlganliklari sababli taʼlim yili kech kuzda boshlanib, bahorda ertaroq yakunlangan. Maktablarda 7 yoshdan 17 yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlar taʼlim olgan [3; 12-b].

1901 yilda Turkiston oʻlkasida 45 ta, 1905 yilda 82 ta va 1911 yilda 89 ta rus-tuzem maktablari faoliyat yuritgan. Ilk rus-tuzem maktablari ogʻir sharoitlarda shakllanib, ularning rivojlanishi sekinlik bilan amalga oshgan. XIX asr oxirida ushbu maktablarning soni koʻpayishi kuzatildi. Bu oʻsish mintaqa iqtisodiyotida kapitalistik sektorning rivojlanishi, Turkistonni Rossiyaning markaziy hududlari bilan bogʻlovchi temir yoʻl tarmoqlarining ochilishi, rus shaharlari bilan tovar ayirboshlashning ortishi, qishloq xoʻjaligining tijoriylashuvi va mahsuldorligi oshishi bilan bogʻliq edi. Bularning barchasi rus va mahalliy tillarni biladigan, zamonaviy bilimlarga ega malakali mutaxassislariga boʻlgan ehtiyojni ortirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda rus taʼlim tizimi joriy etilishi bilan birga taʼlim jarayonlarini boshqarish uchun maxsus boshqaruv organlari, masalan, Turkiston oʻlkasi oʻquv ishlari bosh boshqarmasi va uning mahalliy inspeksiyalari tashkil etildi. General-gubernator va boshqa yuqori lavozimli rahbarlarning oʻlkadagi taʼlimni boshqarishda keng vakolatlarga ega boʻlishi hamda harbiy-gubernatorlar va uyezd boshliqlari oʻquv jarayonida ishtirok etgan.

Dastlabki rus taʼlim muassasalari asosan mintaqaga koʻchib kelgan rus aholining taʼlimga boʻlgan ehtiyojini qondirishga moʻljallangan edi. General-gubernatorlik tashkil etilib, imperiya hukumatining “ruslashtirish” siyosati amalga oshirilishi belgilanganidan soʻng, taʼlim siyosati muhim ahamiyat kasb etdi. Rus taʼlimining joriy etilishi mahalliy aholini imperiyaga gʻoyaviy bogʻliq qilib qoʻyishni maqsad qilgan. Biroq bu taʼlim muassasalari ayrim ijobiy natijalarni ham keltirib chiqardi: mahalliy oʻquvchilar rus va mahalliy matbuot orqali mintaqada va dunyoda roʻy berayotgan voqealardan xabardor boʻlib, dunyoqarashi kengaydi. Milliy ziyolilar imperiya hukumatining “ruslashtirish” siyosati va milliy kamsitishni tushunib, unga qarshi kurash olib bordilar, bu esa jadidlarning keng koʻlamda faoliyat yuritishiga sabab boʻldi.

XIX asr 70-yillaridan boshlab oʻrta taʼlim muassasalari boʻlgan gimnaziyalar tashkil etila boshlandi. Bu muassasalar zodagon va amaldorlar farzandlarini davlat xizmati va universitetga tayyorlash uchun moʻljallangan boʻlib, boshqa ijtimoiy tabaqalarga ham taʼlim olish imkoniyatini taqdim etgan. Gimnaziyalar toʻqqiz

yillik ta'lim kursini o'z ichiga olgan bo'lib, dastur keng qamrovli va xilma-xil edi. Ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida maktablar xaritalar, globuslar, atlaslar va boshqa ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlangan. Asosiy fanlar qatorida qadimgi tillar (lotin, yunon, rus va cherkov slavyan) hamda matematika darslari o'qitilgan.

Gimnaziyalarning pedagogik kengashi katta vakolatlarga ega edi. Kengash o'quvchilarni qabul qilish, dars jadvallarini tuzish, o'quv qo'llanmalar va kitoblarni tanlash, moddiy yordam va stipendiyalarni belgilash kabi masalalarni hal qilgan. Shuningdek, har chorakda o'quvchilar bilimini va xulqini baholab, tartibbuzarlik bo'yicha choralar ko'rgan, ilg'or o'quvchilarga mukofotlar topshirgan va imtihonlarni o'tkazgan [9; 302-b].

XIX asr ohirlariga kelib hali barcha viloyatlar markaziy shaharlarida gimnaziyalar tashkil etilmagan edi. Ashxobodda birinchi progimnaziya 1896 yilda, Samarqandda o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalari 1899 yilda [6; 144-b] tashkil etilgan. Verniy o'g'il bolalar gimnaziyasi 1876 yilda tashkil etilgan edi [4; 39-b].

Gimnaziyalar faoliyatining dastlabki yillarida o'quvchilar soni kam bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular soni ko'paydi. 1886 yilda Toshkent o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 585 ta, 1893 yilga kelib esa 716 nafarga oshgan. 1900 yilda Samarqand o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida o'quvchilar soni 274 ta, 1910 yilda 820 ta bo'lgan. 1902 yilda Ashxobod o'g'il va qiz bolalar gimnaziyalarida esa ular 724 ta, 1910 yilda 1226 bo'lgan.

XX asr boshlarida Turkistonda gimnaziyalar, o'qituvchilar seminariyalari va cheklangan sonli kasbiy bilim yurtlari o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondira olmaganligi sababli, xususiy o'rta ta'lim muassasalari jamoat mablag'lari hisobidan ko'payib bordi. 1909 yilda Toshkent va Qo'qonda bittadan bilim yurti faoliyat ko'rsatgan.

Imperiya hukumatining oxirgi yillarida o'lkaning uyezd shaharlarida Andijon va Qo'qonda ikkita o'g'il bolalar va qizlar gimnaziyalari mavjud bo'lgan. Shuningdek, Pishpek va Prjevalsk, Kattaqo'rg'on, Chorjuy, va Krasnovodskda o'g'il bolalar uchun, Namanganda qizlar uchun gimnaziyalar tashkil etilgan. 1914 yilda Marvda bilim yurtlari ochilib faoliyat yuritgan.

1917 yilga kelib, kadetlar korpusini hisobga olmaganida, Turkiston o'lkasida jami 29 ta o'rta ta'lim maktabi bo'lib, ular 9577 nafar o'quvchini o'qitgan. O'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning aksariyati mulkdorlar qatlami farzandlari edi.

Toshkentda yaxshi jihozlangan bilim yurti mavjud bo'lib, bu muassasa gimnaziyalarga qaraganda quyi bosqichda sanalgan. Bilim yurtlari asosan o'rta qatlam vakillarining ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan.



Ularning o'quv dasturi matematika, tabiatshunoslik va zamonaviy tillarni o'z ichiga olgan. Mazkur muassasa texnika va sanoat yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlariga kirishni maqsad qilgan o'quvchilarni tayyorlagan [4; 41-b].

1900 yilda Orenburg kadetlar korpusining Toshkentda ochilgan tayyorlov maktabi negizida 1904 yilda Toshkent kadetlar korpusi tashkil etildi. 1878 yilda kasbiy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonunga asosan, Xalq maorifi vazirligi butun Rossiya, shu jumladan Turkiston o'lkasida ham davlat va xususiy mablag'lar hisobiga sanoat bilim yurtlari, shahar maktablari qoshida hunarmandchilik va qo'l mehnati sinflari tashkil etishni belgilagan.

1896 yilda Toshkentda hunarmandchilik bilim yurti ochildi. Bu yerda paxta tozalash va boshqa ishlab chiqarish korxonalarini ta'mirlash uchun malakali duradgorlar, chilangarlar, tokarlar va temirchilar tayyorlangan.

XX asr boshiga kelib Toshkent va Verniy shaharlarida yer o'lchovchilar kurslari tashkil etildi [8]. 1897 yilda Toshkentda ariq-oqsoqollarni (irrigatsiya nazoratchilarini) tayyorlash uchun "Quyi geodeziya kurslari" tashkil etildi. Shuningdek, 1887 yildan Verniy shahrida bog'bonlarni o'qitish uchun maxsus o'quv yurti ochildi. Shu yildan boshlab Kopalada, 1890 yilda Pishpakda, 1896 yildan Jarkentda, 1897 yildan Ashxobodda va 1898 yildan Prjevalskda boshlang'ich qishloq xo'jaligi maktablari faoliyat ko'rsata boshladi.

Podsho ma'muriyati Turkiston o'lkasida rus ta'lim tizimini shakllantirish jarayonida bu muassasalarda dars beradigan mutaxassis-pedagoglarni tayyorlash maqsadida 1879 yilda Turkiston o'qituvchilar seminariyasini tashkil etdi. Unda din qonunchiligi, pedagogika, rus tili, arifmetika, geometriya, algebra, fizika, tabiatshunoslik, Vatan (Rossiya) tarixi, geografiya, mahalliy tillar (o'zbek va fors) [7], husnixat, rasm darsi, ashula, musiqa, qo'l mehnati, gimnastika darslari hamda darsdan bo'sh vaqtlarda bog'dorchilik va tomorqachilik o'rgatilgan. 1879- 1904 yillarda seminariyaga qabul qilingan 415 ta o'quvchidan 348 tasi rus, 54 tasi qirg'iz, 9 tasi o'zbek, 3 tasi tatar va 1 tasi turkman millatiga mansub edi. General gubernator Samsonov tashabbusi bilan 1913 yili Verniyda ham o'qituvchilik seminariyasi tashkil etildi.

1914 yildan boshlab, Farg'ona viloyatida kichik kredit sherikchilik shirkatlari tashkil etilishi doirasida mahalliy aholiga soddalashtirilgan hisobchilik bo'yicha qisqa muddatli kurslar o'tkazila boshlandi. Mahalliy rahbariyat bu tashabbuslarni qo'llab-quvvatladi, chunki Birinchi jahon urushi yillarida paxta yetishtirish va uni Rossiyaga yetkazib berish ehtiyoji ortib borayotgandi.

Turkistonda texnik ta'limning rivoji paxta tozalash va yog' zavodlari, shuningdek, temir yo'llarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lib, Toshkent quyi texnik temir yo'l bilim yurti bunga misol edi. Bu bilim

yurtlarining o‘quv dasturlari Yo‘l aloqalari vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o‘quv jarayonlari ham ushbu vazirlik tomonidan amalga oshirilgan.

Tibbiy ta‘lim elementlari esa Turkistonda XIX asr oxirlarida rus harbiy gospitalari va “mahalliy ayollar va bolalar uchun davolash maskanlari” qoshida shakllana boshladi. Bu joylarda tub joy aholisi vakillari orasidan emlovchilar va doylar individual tarzda o‘qitilgan, 1905 yilda esa Farg‘ona vodiysida 75 ta mahalliy emlovchi faoliyat yuritgan.

O‘lkada 1917 yilga qadar oliy ta‘lim muassasasi mavjud emas edi. 1912 yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan paxtachilik bo‘yicha Turkiston syezdi o‘rta qishloq xo‘jaligi va oliy politexnikum ochilishi haqida qaror qabul qildi, biroq podsho Rossiyasi hukumatining so‘nggi yillarigacha bu muassasalarni tashkil etish borasida sezilarli choralar ko‘rilmadi.

Turkistondagi an‘anaviy ta‘lim tizimi iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlarga javob bera olmasdan, o‘z dastur va uslubiyati bo‘yicha eskirgan edi. Bu holatni imperiya ma‘muriyati musulmon ta‘lim tizimini tanqid qilish va o‘zining yangi ta‘lim tizimini joriy etish uchun qulay imkoniyat sifatida ko‘rdi. Shunga qaramay, mahalliy ma‘rifatparvarlar va jadidlar millatning ma‘naviy yuksalishiga alohida e‘tibor qaratib, islohotlar o‘tkazishga intilishdi. Ularning bu sa‘y-harakatlari aholi orasida qo‘llab-quvvatlandi, ammo jadidlar diniy mutaassiblar va imperiya hokimiyatining bosimiga uchradi, bu esa ularning keng ko‘lamda rivojlanishini cheklab qo‘ydi.

Imperiya hukumatining Turkistonda musulmon ta‘lim tizimini kuchsizlantirishga qaratilgan siyosati 1875 va 1893 yillardagi qonunlar hamda 1879, 1906, 1907 va 1912 yillardagi qo‘llanmalar orqali amalga oshirilgan. Ammo mahalliy ta‘lim muassasalarini to‘liq yo‘q qilish va o‘rniga yangi tizimlarni tashkil etish rejasi bo‘lmagan. Sovet hukumati XX asrning ikkinchi choragida bu jarayonni davom ettirib, an‘anaviy ta‘lim tizimini yo‘q qilish uchun zamin yaratdi.

1875 yilda Turkiston o‘lkasida mahalliy va rus ta‘lim muassasalarini boshqarish uchun Turkiston o‘quv ishlari bosh boshqarmasi tashkil etildi[10]. Ta‘lim muassasalarining faoliyatini nazorat qilish uchun tizim yaratilgan bo‘lsa-da, uning ishida bir qator jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Xususan, nazoratni amalga oshiruvchi inspektorlar soni yetarli emasligi va ularning ko‘p vaqtini kanselyariya ishlari bilan o‘tkazishi muammoli bo‘lgan. Shuningdek, ta‘limni targ‘ib qilishga jalb etilgan mansabdor shaxslar mahalliy urf-odatlarini hisobga olmay, rus ta‘limining mohiyatini tushunmasdan uni ommalashtirishga uringan.

Mazkur boshqarma O‘rta Osiyo xalqlari tarixida ta‘lim tizimini boshqarishning yangi shakli bo‘lib, davlat tomonidan ta‘minotning ijobiy jihatlarni namoyon etdi. Shuningdek, o‘lkada boshlang‘ich rus va rus-tuzem maktablarining tashkil



etilishi o'ziga xos o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu maktablar, imperiyaning manfaatlariga xizmat qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa-da, mahalliy ta'lim tizimida ayrim ijobiy yangiliklarni kiritdi. Ular Yevropa pedagogikasi ta'siri ostida diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni ham o'qitishni yo'lga qo'ydi va noan'anaviy usullardan foydalanishni boshladi. Bundan tashqari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar ham kiritildi.

Biroq, imperiya ma'muriyati o'lkada keng miqyosdagi savodxonlikni targ'ib qilishni emas, balki quyi lavozimlarda ishlaydigan ma'lum miqdordagi kishilarni tayyorlashni maqsad qilgan edi. XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o'lkasida o'quv ishlarini boshqarish uchun maxsus boshqaruv organlari tashkil etildi, ularning faoliyati Rossiya imperiyasining mudofaa vazirligi nazorati ostida bo'lgan. Barcha ishlarda, shu jumladan ta'lim boshqaruvida ham, general-gubernator va viloyat harbiy gubernatorlari muhim rol o'ynadi.

Rus maktablari an'anaviy ta'lim tizimidan usul va o'qitish jarayoni jihatidan farq qilib, imperiyaning mahalliy kadrlarni tayyorlash maqsadlariga xizmat qilishi kerak edi. Lekin ta'lim jarayonining mahalliy aholining milliy xususiyatlariga mos kelmasligi va bitiruvchilarning past lavozimlarga tayinlanishi maktablarning ommaviylashishiga to'sqinlik qildi. Mahalliy ziyolilar, jumladan jadidlar, yangi usul maktablari tashkil etib, rus maktablarining mavqeini pasaytirishga hissa qo'shdilar.

XIX asr oxirlaridan boshlab, Turkistonda gimnaziya va qishloq xo'jaligi, transport, savdo kabi turli sohalar bo'yicha kasbiy ta'lim muassasalari tashkil etila boshlandi. Ularning faoliyati kadrlar tayyorlashda muhim rol o'ynadi. Garchi gimnaziya dasturlari yangilik bo'lsa-da, mahalliy aholi orasida o'quvchilar soni kam edi. Imperiya ma'muriyati o'z manfaatlarini ko'zlab ta'limni rivojlantirgan, ammo mahalliy va ilg'or rus ma'rifatparvarlarining ta'limni takomillashtirish tashabbuslariga qarshilik ko'rsatgan.

XX asr boshlarida Turkiston shaharlarida texnika, savdo, transport va harbiy sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan o'rta ta'lim muassasalari ochildi. Gimnaziya bitiruvchilari oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini olgan, bilim yurtlari esa texnika va sanoat sohalarida o'qishni davom ettirishga tayyorlagan.

Mazkur bilim yurtlari, avvalo, Turkiston o'lkasida yashovchi rus fuqarolarining o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, ikkinchi navbatda esa, rus ta'lim muassasalarini tamomlagan mahalliy aholining ta'lim olishini ta'minlashga xizmat qilgan. XIX asrning 90-yillariga kelib rus aholisi orasida o'rta ta'limga bo'lgan ehtiyoj oshgani sababli, turli shaharlarda kasbiy ixtisoslashgan bilim yurtlari va maxsus mutaxassislarni tayyorlovchi o'quv kurslari tashkil etildi. Shu bilan birga, maktablarda hunar ta'limi yo'lga qo'yildi.

Turkiston o'lkasida tashkil etilgan o'rta va kasbiy yo'nalishdagi ta'lim muassasalari son jihatdan kam bo'lib, qishloq xo'jaligi, temir yo'l transporti va sanoat sohasidagi mutaxassislarni yetarli darajada tayyorlay olmas edi.

Xulosa. Turkiston ma'muriyati mahalliy aholi bolalari uchun rus tilida dars o'tiladigan o'rta ta'lim muassasalarini tashkil etishga ko'pincha qarshi chiqardi. Ularning fikricha, mahalliy bolalar o'rta ta'lim dasturlarini yetarlicha o'zlashtira olmaydi, deb hisoblangan, shu bois ta'lim maskanlarini tashkil etishdan voz kechilgan. Rus maktablari an'anaviy ta'lim tizimidan farq qilib, imperiya manfaatlari yo'lida mahalliy kadrlarni tayyorlashi kerak edi. Biroq, ta'lim tizimi mahalliy aholining milliy xususiyatlariga mos kelmagani va bitiruvchilarga past lavozimlar taklif qilingani sababli, bu maktablar mahalliy orasida ommalasha olmadi. Bundan tashqari, mahalliy ziyolilar, xususan jadidlar, yangi usul maktablarini ochishi rus maktablarining mavqeini pasaytirdi.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda maorifni tashkil etish masalalari ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan rivojlandi. Rossiya imperiyasining ma'muriy islohotlari va mahalliy ta'lim tizimining yangilanishi ta'lim sohasida muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. An'anaviy maktablar va madrasalar yangi usuldagi ta'lim shakllari bilan raqobatlashib, ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qildi. Turkistonda ta'lim tizimining o'zgarishlarini chuqur o'rganish, yangi g'oyalarning tarqalishini va mahalliy jamiyatga ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi. Shunday qilib, ta'lim islohotlarining tarixiy va zamonaviy yondashuvlar bilan bog'liqligi hozirgi ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo'ladi. Turkistondagi ta'lim rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Арапов Д.Ю. Система государственного регулирования ислама в Российской империи (последняя треть XVIII – начало XX вв.). – Москва, 2004. – С. 173.
2. Бахтурина А.Ю. Окраины Российской империи: государственной управление и национальная политика в годы первой мировой войны (1914-1917 гг.). Москва: РОССПЭН, 2004. – С. 312.
3. Думенко М.Ф. Русско-туземные школы Туркестана. – Т., 1957. – С. 12
4. Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865-1917 гг.). – Ташкент: Гос. Изд-во Уз ССР, 1966. – С. 39.
5. Очерки истории и педагогической мысли народов СССР (конец XIX – начало XX в.). / Отв. ред. Э.Д.Днепров. – Москва: Педагогика, 1991. – С. 103.
6. Обзор Самаркандской области за 1899 г. - Ташкент, 1900. – С. 144-145.
7. Seminariyada O'zbek va fors tillarini o'qitish 1885 yildan boshlangan.
8. Туркестанский курьер, 1912, №226; ТВ, 1912, №227.
9. Хрестоматия по истории школы и педагогики в России (до Великой Октябрьской социалистической революции). Составитель и автор вводных очерков С.Ф.Егоров. Изд. второе переработанное. – Москва, "Просвещение", 1986. – С. 302-310.
10. Шушкова Маргарита Евгеньевна "Организация управления Туркестаном в начале XX века" тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 07.00.02., 2016.